Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti X.A.Karjavova muallifligida tayyorlangan "Biznes asoslari" fanidan tuzilgan fan dasturiga (ichki)

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Biznes asoslari" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi talabalarni biznesni yuritishda, biznesni boshqarish, biznesni raqamlashtirish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'lishi, xususan, biznesni tashkil qilishning yuridik asoslari va tartibi, biznes takil qilish hamda biznesni raqamlashtirish tartibi kabi masalalarini o'rgatish hamda egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Ushbu fan "Biznes asoslari" deb nomlanib, unda sizga talabalarga O'zbekiston Respublikasida biznes faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari va tashkiliy asoslari; ushbu sohaga malakaviy va axloqiy talablari; biznesni raqamlashtirsh tushunchasi va raqamlashtirish riski; biznesni strategik rejalashtirish; biznesni raqamlashtirish tizimini o'rganish hamda baholash; dalillar; ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo 'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalinishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri. i.f.n. dotsent. **Nizamov A.N.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI INSON RESURLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro'yxatga olindi: № BD-60410900 2024 yil "10 08"	**"TASDIQLAYMAN"** SamDU rektori: R.I.Xalmuradov 2024 yil "__"

"BIZNES ASOSLARI"
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410900 -Biznesni boshqarish

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
BK1210	2024-2025	II	5
BK1310	2025-2026	III	5
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek		6

	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
1.	Biznes asoslari 1-qism	68	82	150
	Biznes asoslari 2-qism	60	90	150

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga biznesning mohiyatini, uning darajalari va turlarini, tadbirkorlik faoliyatining davlat va jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni, xalqaro iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi ahamiyati, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni berishdan iborat. **Fanning vazifasi** – “biznes” va “tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini, uning nazariy asoslarini o‘rgatish; biznesni rejalashtirish va boshqarish, baholash va tahlil qilish uslublarini tushuntirish; tadbirkorlik risklari, ularni baholash va pasaytirish hamda bartaraf erish yo‘llarini o‘rgatish; biznesni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish bo‘yicha bilim-ko‘nikmalarni shakillantirish.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Biznes asoslari faniobyekti, predmeti, vazifalari** Tadbirkorlik asoslari fani predmeti tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, marketing, boshqarish, tahliliy asoslari hisoblanadi. Mazkur fanning asosiy vazifasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash muammolarini tadqiq qilish va yechimlarini amaliyotga tavsiya etish, shu sohadagi bilimlarni boyitish va ularni talabalar hamda boshqa o‘quvchilarga yetkazishdan iborat. U bu vazifani boshqa iqtisodiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshiradi.
M2	**Tadbirkorlik va biznesning nazariy asoslari** Tadbirkorlikni boshqa faoliyat turlaridan ajratib turadigan o‘z belgilari mavjud. Ularga tashabbuskorlik, novatorlik, yaratuvchanlik, islohotchilik, tavakkalchilik kiradi. Ana shunday belgilarga ega bo‘lgan harakat, ish, faoliyat, biznes tadbirkorlik bo‘lib hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati erkinlik, mustaqillik, teng huquqlilik, ixtiyoriylik, moddiy javobgarlik, qonuniylik tamoyillari asosida tashkil etilishi va amalga oshirilishi lozim. Bunday tamoyillar to‘la ro‘yobga chiqadigan shart-sharoitlar yaratilgan va ularga to‘liq rioya etilgan taqdirda tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma’naviy jihatdan yuksak darajaga ko‘tariladi va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi.
M3	**Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tadbirkorlik va biznes** Jahonda tadbirkorlik va biznes o‘z taraqqiyotida turli bosqichlami bosib o‘tdi va rivojlanishda davom etmoqda. U har bir mamlakatda o‘ziga xos tarzda shakllandi va rivojlandi. Yangi O‘zbekistonda uning taraqqiyoti zamonaviy tadbirkorlikka yaqin bosqichdan boshlanib, tez sur’atlar bilan, izchil tarzda yuqori bosqichga qarab bormoqda. Lekin bunday rivojlanish qiyinchiliklarsiz kechmadi va hozirgi kunda ham bu yo‘nalishda anchagina muammolar o‘z yechimini kutmoqda.
M4	**Tadbirkorlikning g‘oyaviy-falsafiy asoslari** Tadbirkorlik strategiyasi bu tadbirkorlik san’ati bo‘lib, faoliyat istiqbolini belgilashda zarur tadbirlami aniqlash, ularni izchil bir tizimga solish va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. U tadbirkorlik faoliyatining qo‘yilgan maqsadiga erishishi va samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik strategiyasi tadbirkorlik subyektining missiyasiga asoslanadi. Tadbirkorlik strategiyasi murakkab mantiqiy tuzilma bo‘lib, bir qator xususiy va alohida strategiyalarni o‘z ichiga oladi hamda bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirish uchun maxsus taktika ishlab chiqiladi. Natijalari esa strategik nazorat va tahlil yordamida baholanadi.
M5	**O‘zbekistonda tadbirkorlikning huquqiy va shartnomaviy asoslari** Tadbirkorlik faoliyatida muhim rol o'vnadigan huquqiy hujjatlardan biri xo‘jalik shartnomasi hisoblanadi. Tadbirkorning sheriklari, hamkorlari, davlat organlari va boshqa subyektlar bilan iqtisodiy munosabatlari xo‘jalik shartnomasida aniqlashtiriladi va ana shu shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma sheriklar, hamkorlar o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi va ularga majburiyat tusini beradi, qabul qilingan majburiyatlaming bajarilishini ta’minlaydi, sheriklar xatti-harakatlari tartibi va izchilligini belgilab beradi. Shartnoma ixtiyoriy ravishda taraflarning biri taklifi bilan ikki taraf kelishuvi asosida tuziladi. Asosiy talab: shartnoma amal qilayotgan qonun hujjatlariga zid bo‘lmasligi kerak.
M6	**O‘zbekistonda tadbirkorlik muhiti** Tadbirkorlik faoliyati muayyan muhitda tashkil etilishi, amalga oshirishi va rivojlanishi mumkin. Tadbirkorlik muhiti tadbirkorlik shart-sharoitlari va omillari majmuyidir. Tadbirkorlik shart-sharoitlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tabiatan mavjud bo‘lgan hamda jamiyat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar hisoblanadi. Ular ikki guruhga - obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarga bo‘linadi. Obyektiv shart-sharoitlar mamlakatda tabiatan mavjud imkoniyatlar bo‘lib, ularga tabiy resurslar, tabiiy iqlim, aholi soni, uning o‘sishi va iqtisodiy faolligi va boshqalar kiradi. Subyektiv shart-sharoitlar jamiyat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar bo‘lib, ularga siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy imkoniyatlar, tadbirkorlik infratuzilmasi, uni qo‘llabquwattlash tizimi va boshqalar kiradi.
M7	**O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimi** Tadbirkorlik infratuzilmasi - tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish, rivojlantirishga u yoki bu ko‘rinishda aloqador bo‘lgan davlat organlari va nodavlat tashkilotlari majmuyidir. Uning asosiy vazifasi tadbirkorlikni tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish, tadbirkorlik subyektlariga har tomonlama yordam ko‘rsatish va ulaming huquqlarini himoya qilish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. O‘zbekistonda barcha viloyatlarda biznes-inkubatorlar tuzilib, faoliyat yuritib kelmoqda. Ulaming asosiy vazifasi yangi tuzgan korxonalar rivojlanishining boshlang‘ich bosqichlarini osonlashtirish, tadbirkorlami o‘qitish, tadbirkorlik

	subyektlarini tezroq rivojlanishi uchun shartsharoit yaratish va ayrim resurslami taqdim etish hisoblanadi.
M8	**Tadbirkorlikning tashkiliy asoslari** Tadbirkorlik bir qator turlarda va shakllarda tashkil etiladi, rasmiylashtiriladi va amalga oshiriladi. Tadbirkorlik turi o‘z elementlari, ulaming aloqalari va munosabatlarini mujassamlashtirgan xossalari va xususiyatlari bilan ajralib turadigan tadbirkorlik yo'nalishidir. Tadbirkorlik turlari sifatida yuridik shaxs maqomiga ega boTgan va ega boTmagan tadbirkorlik, tijorat va notijorat tadbirkorligi, ilmiy-texnikaviy, tovar ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va savdosotiq tadbirkorligi, kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlikni ajratish mumkin. Tadbirkorlik turlarining har biri turli shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Tadbirkorlik shakli - bu tadbirkorlikning (alohida turining) yaxlit holda tashqi ifodalanishi va strukturasi, elementlari aloqalari va munosabatlarining barqaror muayyanligi tipidir. Tadbirkorlikning tashkiliyhuquqiy shakllariga yakka tartibdagi tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi, qo‘shma tadbirkorlik kiradi.
M9	**Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari** O ‘zbekistonda yakka tadbirkorlar son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu tadbirkorlikning oddiy shakli bo‘lib, xususiy mulk va shaxsiy mehnatga asoslanadi va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmaydi. Lekin davlat ro‘yxatidan o‘tishi shart. Yakka tadbirkorlik shaxsiy va birgalikdagi tadbirkorlik ko‘rinishida, birgalikdagi tadbirkorlik esa, o'z navbatida, oilaviy tadbirkorlik va oddiy shirkat ko‘rinishida tashkil etilishi mumkin. Ulaming har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllaridan xususiy tadbirkorlik alohida o‘rin egallaydi. U xususiy firma (korxona), fermer xo‘jaligi va yuridik shaxs bo‘lgan dehqon xo‘jaligi ko‘rinishlarida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismini xususiy korxonalar va fermer xo‘jaliklari tashkil etadi va tadbirkorlik sektorida ulaming roli kattadir. Bundan tashqari, jamiyatda mulkdorlar qatlamining shakllanishida ham ular asosiy rol o‘ynaydilar.
M10	**Tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish asoslari** O ‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarini respublika darajasida Adliya vazirligi, mintaqalar darajasida Qoraqalpog‘isto,n Respublikasi Adliya vazirligi va viloyatlar Adliya boshqarmalari, shaharlar va tumanlar miqyosida esa tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish inspeksiyalari ro‘yxatdan o‘tkazadilar. Tadbirkorlik subyektlaming asosiy qismi quyi bo‘g‘inda ro‘yxatga olinadi. Mazkur bo‘g‘inda, ishlarni osonlashtirish, tezlashtirish va tadbirkorlarga yordam ko‘rsatish maqsadida axborot - maslahat markazlari tuzilgan va xabardor qilish tartibi asosida “bir darchada” rasmiylashtirish joriy qilingan.
M11	**Tabdirkorlikda marketing va raqobat** Har qanday tadbirkor o‘z ishini bozordan boshlab, bozorda yakunlaydi, ya’ni u bozor talabiga qarab nima ish bilan shug‘ullanishini aniqlaydi, so‘ng o‘ziga kerakli ishlab chiqarish vositalarini sotib oladi va tayyorlagan mahsulotini bozorda sotib, maqsadiga erishadi. Tadbirkorning bozordagi faoliyati marketing faoliyati bo‘lib, uning butun faoliyatining shunchaki tarkibiy qismi emas, balki etakchi qismi hisoblanadi, chunki marketing tadbirkor faoliyatini bozor talabiga muvofiqlashtiradi va bozorga yo‘naltiradi. Tadbirkorning bozordagi vaziyatni aniq bilib, marketing vositalari va usularini unga muvofiq tanlab, tezkorlik bilan samarali qo‘llay olishi muvaffaqiyat garovidir. Marketing vositalari tovar va uning sifati, assortimenti, narxi, reklama bo‘lsa, usullari bozorni segmentlash, iste’molchilar aniq guruhi ehtiyojini qondirishga ixtisoslashish, ehtiyojga keng ma’noda qarash, iste’molchini ishontirish orqali ko‘ndirish, uning sotib

	olgan tovardan foydalanish davrida qoniqish hosil qilgani yoki qilmaganini o‘rganish, tovarni (xizmatni) aniq iste’molchilar talab-istaklariga maksimal moslashtirish va boshqalar.
M12	**Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish asoslari** Har bir tadbirkor boshqaruv bilan u yoki bu darajada shug‘ullanadi. Shuning uchun u boshqaruv tamoyillari, funksiyalari, usullari va ularni qo‘llash tartibini bilishi maqsadga muvofiq. Tadbirkorlikda ham boshqarishning ma’muriy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik usullari keng qo‘llaniladi. Har bir usulning afzalliklari va kamchiliklari bor. Shuning uchun ularni muayyan boshqaruv obyekti va vaziyatga muvofiq keladigan uyg‘unlikda qo‘llash yaxshiroq natija beradi. Boshqarish ko'zlangan maqsadga erishish qobiliyati va mahorati bo‘lib, ular boshqaruv qarorlari qabul qilish va ularni bajarishni tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Tadbirkorlik subyektining faoliyat yo‘nalishi, ko‘lami, maqsadi va vazifalariga qarab boshqarishning chiziqli. funksional, shtabli va ularning ma’lum uyg‘unliklariga asoslangan boshqaruv tuzilmalari tashkil etilishi mumkin.
M13	**Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari** Tadbirkorlik faoliyati muvaffaqiyatini ta’minlaydigan vositalardan biri rejalashtirish hisoblanadi. Rejalashtirish - ma’lum davrda mo‘ljallangan maqsadga erishish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan harakatlar, ishlar, tadbirlar, vazifalar va ularni amalga oshirish tartibi, izchilligi, muddatlari, xarajatlarini aniqlash hamda ularni o‘zaro muvofiqlashtirish jarayonidir. Bu jarayon tadbirkorlik faoliyati istiqbolini chuqurroq aniqlash, maqsadga erishish uchun kuch-g‘ayratni muvofiqlashtirish va aniq yo‘naltirish, kutilmagan o'zgarishlarga tayyor bo'lish, rahbarlar va xodimlaming vazifalari va mas’uliyatini belgilashga xizmat qiladi.
M14	**Tadbirkorlik sarmoyasi va uning harakati** Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, amalga oshirish va rivojlantirish uchun tegishli resurslar zarur. Tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etib, uni ta’minlaydigan moddiy va nomoddiy (tadbirkorlik qobiliyati va mehnatdan tashqari) resurslar tadbirkorlik sarmoyasi hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining har bir sohasi, turi, jarayoni o ‘ziga xos resurslar, sarmoya turlarini talab qiladi. Tadbirkorlik sarmoyasi ikki asosiy manbadan shakllantiriladi. Ulardan biri ichki manbalar boiib, tadbirkorning o ‘z mol-mulki, jamg‘argan mablag‘lari, oladigan foydasidan iborat bo‘ladi. Ikkinchisi, tashqi manbalar bo‘lib, ularga olinadigan kreditlar, qarzlar, investitsiyalar, ijara yoki lizing obyektlari va boshqalar kiradi. Tadbirkorning o‘z sarmoyasi va chetdan jalb qilingan sarmoya maqbul nisbatda bo‘lishi iozim, aks holda, tadbirkor moliyaviy mustaqilligini yo‘qotishi mumkin.
M15	**Tadbirkorlikda moliyaviy munosabatlar asoslari** Tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo' lgan pul mablagTarini shakllantirish, taqsimlash, ishlatish masalalari tadbirkorlik moliyaviy munosabatlarini tashkil etadi. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash — bu tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy resurslar, ya’ni pul mablag‘lari bilan ta’minlash demakdir. Tadbirkorlik faoliyatini moliyalash ikki manbadan - ichki va tashqi manbadan amalga oshiriladi. Moliyalashning ichki manbayi tadbirkorlik subyektining o‘z mablag‘lari bo‘lib, unga ustav sarmoyasi tarkibidagi pul mablagTari, faoliyatdan olinadigan foyda, amortizatsiya jamg‘armasi, tekinga berilgan mablag‘lar kiradi. Moliyalash tashqi manbalariga kreditorlar, investorlar va boshqa qarz beruvchilar kiradi.
M16	**Tadbirkorlik faoliyatini hisobi va tahlili asoslari**. Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy natijasi foyda yoki zarar bo‘lib, uning miqdori va darajasi, o‘zgarishi va bu o‘zgarish sabablari tahlil qilinadi hamda foydani oshirish chora-tadbirlari ko‘riladi.

	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq foydaning bir qator ko'rsatkichlari aniqlanishi va baholanishi kerak: mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, umumxo'jalik foydasi, soliqqa tortilgungacha botgan foyda va sof foyda. Tadbirkorlik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish yordamida moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi asosida uning umumiy moliyaviy holati, moliyaviy barqarorligi va to'lovga qodirligi aniqlanadi va kompleks baholanadi. Bunda mazkur ko'rsatkichlarning haqiqiy darajasi har bir ko'rsatkich uchun belgilangan me'yori bilan qiyosiy darajasi va yuz bergan o'zgarishlar aniqlanadi va shu tahlil natijalari asosida faoliyat moliyaviy holatini yaxshilash chora-tadbirlari ko'riladi.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S) **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.**	
S1	**Biznes asoslari faniobyekti, predmeti, vazifalari**
S2	**Tadbirkorlik va biznesning nazariy asoslari**
S3	**Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tadbirkorlik va biznes**
S4	**Tadbirkorlikning g'oyaviy-falsafiy asoslari**
S5	**O'zbekistonda tadbirkorlikning huquqiy va shartnomaviy asoslari**
S6	**O'zbekistonda tadbirkorlik muhiti**
S7	**O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi**
S8	**Tadbirkorlikning tashkiliy asoslari**
S9	**Tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakllari**
S10	**Tadbirkorlik faoliyatini rasmiylashtirish asoslari**
S11	**Tabdirkorlikda marketing va raqobat**
S12	**Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish asoslari**
S13	**Tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirish asoslari**
S14	**Tadbirkorlik sarmoyasi va uning harakati**
S15	**Tadbirkorlikda moliyaviy munosabatlar asoslari**
S16	**Tadbirkorlik faoliyatini hisobi va tahlili asoslari.**

IV. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Biznes asoslari" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	"Biznes asoslari" fanining maqsadi, obyekti va predmeti
2.	Biznesga kirishning asosiy tushunchalari va turlari
3.	Davlat iqtisodiyatida biznesning ahamiyati
4.	Biznes jamiyat rivojlanishining tizimi sifatida
5.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida biznes
6.	Raqamli iqtisodiyotda biznesning o'rni va ahamiyati
7.	Biznesning nazariy asoslari
8.	Biznesning tashkiliy asoslari
9.	O'z biznesini yaratish
10.	Biznesni rejalashtirish
11.	Biznesni moliyalashtirish
12.	Biznes strategiyasi va taktikasi
13.	Biznesda marketing tadqiqotlari
14.	Tadbirkorlik riski
15.	Biznes xavfsizligi
16.	Kichik korxonalarning raqobatbardoshligi
17.	Tadbirkorlik faoliyati va uning uzliksizligini ta'minlash
18.	Tadbirkorlik tashkilotlari faoliyatini tugatish

"Biznes asoslari" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o'quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun asosiy ilmiy va nazariy bilimlarni qo'llash; • biznes sohasidagi tushunchalar va toifalarni; • raqamli marketingni amalga oshirish uchun asosiy vositalar va strategiyalarni; • biznesni shakllantirishda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va biznes munosabatlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • tizimli va qiyosiy tahlil qilish; • tadqiqot qobiliyatiga ega bo'lish; • muammoni hal qilishda fanlararo yondashuvga ega bo'lish;

	• texnik qurilmalar, axborotni boshqarish va kompyuter ishlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • zamonaviy telekommunikatsiya vositalaridan foydalanish; • yangi texnologiyalarni yaratish, ularning raqobatbardoshligini va iqtisodiy samaradorligini baholash uchun biznes-rejalarni ishlab chiqish; iqtisodiy siyosat choralarini baholash va mikro - va makro darajasida strategik qarorlar qabul qilish uchun analitik materiallarni tayyorlash ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. I.N.Ismanov, G.M.Davlyatova, S.M.Buzrukxonov. Biznesni rejalashtirish. Darslik. – T.: TDIU, 2020. - 412 b.
2. J.J.Jalolova, X.E.Normurodov, B.R.Bobojonov, N.A.Abdurashidova. Biznes marketing. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 231 b.
3. D.V.Rasulova, I.Xotamov, X.S.Asatullayeva. Biznesni tadqiq etish usullari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 180 b.
4. A.A.Abidov Rasulev D., Nurullayeva Sh., Ro'zmetova N., Muminova M. Biznes-jarayonlarini modellashtirish: O,,quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT, 2019. – 175 bet.
5. Yaxyayeva I.K. Biznes hujjatlarini tuzish. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019.– 119 б.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi, 2017-yil 16-yanvar.
2. SH.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
3. SH.M.Mirziyoev. 2017-yil 19-sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.// Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentyabr.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so'zi, 2017-yil 23-dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. / Nashr uchun mas'ul R.S.Qosimov. - T: "Ma`naviyat", 2018. - 320 bet.

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://senat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti
3. https://parliament.gov.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti
4. https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
5. https://www.imv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
6. https://mehnat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti
7. https://gov.uz/en/miit – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti
8. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti.
9. https://soliq.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti
10. https://www.bojxona.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining rasmiy veb-sayti
11. https://www.lex.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.
12. https://www.un.org/en/ – Birlashgan millatlar tashkilotining rasmiy veb-sayti
13. https://www.wto.org/ – Jahon savdo tashkilotining rasmiy veb-sayti
14. https://ebook.tsue.uz/ – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining elektron kutubxonasi

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "29 VIII dagidagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: **X.A.Karjavova.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi v.b dotsenti.
9.	**Taqrizchilar:** **Nizamov A.N.** – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi mudiri. i.f.n. dotsent. (tel: +998 97 398 67 17). **Ayubov I.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institutui Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi mudiri. i.f.f.d (PhD). (tel:(93)4164149).

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri: **Z.T.Bakayev**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sh.Rashidov nomidagi SamDU O'quv ishlari bo'yicha I-prorektor: **A. S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti X.A.Karjavova muallifligida tayyorlangan "Biznes asoslari" fanidan tuzilgan fan dasturiga (tashqi)

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Biznes asoslari" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi talabalarga biznesning mohiyatini, uning darajalari va turlarini, tadbirkorlik faoliyatining davlat va jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni, xalqaro iqtisodiy barqarorlikka erishishdagi ahamiyati, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni berishdan iborat.

Ushbu fan "Biznes asoslari" deb nomlanib, unda sizga "biznes" va "tadbirkorlik" tushunchasining mohiyatini, uning nazariy asoslarini o'rgatish; biznesni rejalashtirish va boshqarish, baholash va tahlil qilish uslublarini tushuntirish; tadbirkorlik risklari, ularni baholash va pasaytirish hamda bartaraf erish yo'llarini o'rgatish; biznesni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha bilim-ko'nikmalarni shakillantirish

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo 'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalinishga tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi mudiri. i.f.f.d (PhD) **Ayubov I.I.**